

# МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

**HAMROYEVA Dilfroʻz Bahodirovna***Buxoro davlat universiteti**"Cholgu ijrochiligi: anʻanaviy cholgular"**mutaxassisligi birinchi bosqich**magistranti*<https://doi.org/10.5281/zenodo.14423408>

## OʻZBEK XALQ CHOLGʻU ASBOBI QASHQAR RUBOBINING SHAKLLANISH TARIXI VA MILLIY CHOLGʻUCHILIKDA TUTGAN OʻRNI

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada mamlakatimizda musiqa sanʻatiga qaratilayotgan eʼtibor, milliy cholgʻularimizning musiqa madaniyatida tutgan oʻrni haqida fikr yuritilgan. Oʻzbek xalq cholgʻu asboblari qashqar rubobining shakllanish tarixi, tuzilishi haqida soʻz boradi. Cholgʻuda ijro etish talablari hamda Qashqar rubobi cholgʻusining ustozlari va mohir sozandalari haqida maʼlumot berilgan.

**Kalit soʻzlar:** milliy musiqa sanʻati, cholgʻu ijrochiligi, diatonik, xtomatik tovushqator, oktava, soz, orkestr, musiqa sanʻatiga qaratilayotgan eʼtibor, qashqar rubobi, ijro etish talablari, qashqar rubobining shakllanish tarixi.

## ФОРМИРОВАНИЕ УЗБЕКСКОГО НАРОДНОГО ИНСТРУМЕНТА КАШАРСКОГО РУБОБА ИСТОРИЯ И РОЛЬ В НАЦИОНАЛЬНОМ ИНСТРУМЕНТЕ

### АННОТАЦИЯ

В этой статье рассматривается внимание, уделяемое музыкальному искусству в нашей стране, роль национальных инструментов в музыкальной культуре. Из узбекских народных инструментов рассказывается об истории формирования, строения Кашарского рубоба. Дана информация о требованиях к игре на инструменте, а также о наставниках и опытных настройщиках инструмента Кашкар рубоби.

**Ключевые слова:** Национальное музыкальное искусство, Инструментальное исполнительство, диатонический, хтонический звукоряд, Октава, слог, оркестр, акцент на музыкальном искусстве, Кашкар рубоби, требования к исполнению, история становления Кашкар рубоби.

## FORMATION OF THE UZBEK FOLK INSTRUMENT KASHAR RUBOB HISTORY AND ROLE IN THE NATIONAL INSTRUMENT

### ANNOTATION

This article examines the attention paid to the musical art in our country, the role of national instruments in musical culture. Uzbek folk instruments talk about the history of the formation and structure of the Kashgar rubab. Information is given about the requirements for playing the instrument, as well as about the mentors and experienced tuners of the Kashkar rubobi instrument.

**Keywords:** National musical art, Instrumental performance, diatonic, chthonic scale, Octave, syllable, orchestra, emphasis on musical art, Kashkar rubobi, performance requirements, history of Kashkar rubobi formation.

O‘zbek xalqining bebaho boyligi hisoblangan milliy musiqa cholg‘ulari o‘zining betakrorligi, ovoz tarovatining rang-barangligi va ijro imkoniyatlarining beqiyosligi bilan musiqa madaniyatimizda alohida o‘rin egallaydi.

Bugungi kunda milliy musiqa san‘ati, xususan, cholg‘u ijrochiligiga qaratilayotgan e‘tibor har bir musiqa sohasida tahsil oluvchi hamda ta‘lim beruvchilarni yanada o‘z ustida ishlashga undaydi. Kuni kecha O‘zbekistondagi maktab o‘quvchilari kamida bitta milliy cholg‘u asbobini chalishni bilishi shartligi belgilandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan “Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorning imzolanishi umumta‘lim maktablarida musiqa fanini o‘qitishni yangi bosqichga olib chiqdi.

Unga ko‘ra, 2022/2023-o‘quv yilidan boshlab ta‘lim muassasalarida o‘quvchi va talabalarning madaniy bilim va ko‘nikmalarini, milliy madaniyatga muhabbatini oshirish, yosh iste‘dodlarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan edi [1, 2, 3].

Xususan, maktab o‘quvchilariga milliy musiqa cholg‘ularidan kamida bittasini chala olish mahorati o‘rgatilishi hamda bu haqda ularning ta‘lim to‘g‘risidagi hujjati (shahodatnoma)ga tegishli qayd kiritilishi barchamizga birdek sharaf va mas‘uliyat yuklaydi. O‘quvchi-yoshlarga cholg‘uda ijro etish malakasini shakllantirishda dastlab cholg‘u tarixi haqida ma‘lumot berish maqsadga muvofiqdir.

Xalq cholg‘ulari asrlar davomida taraqqiy topib cholg‘u ijrochiligining uch navi yakka, jo‘r va jamoa turlari bilan uzoq yillar davomida rivojlanib musiqiy merosimizda alohida o‘rin tutib kelmoqda. Cholg‘ularning torli, puflama va urma cholg‘ular guruhlaridan iborat namunalarining nomlari bizgacha yetib kelgan.



Rubob - Osiyoning ayrim xalqlari (xususan o‘zbeklar, tojiklar) o‘rtasida qadimdan keng tarqalgan torli tirnama cholg‘u asbobi. O‘rta Osiyo xalqlariga nisbatan janubiy Xitoyning Sintzyan viloyatida yashovchi uyg‘urlar o‘rtasida keng tarqalgan turi Qashqar rubobi deyiladi. Qashqar rubobi – XX asring boshlarida Qashqardan keltirilgan rubobning takomillashgan varianti sifatida ijro amaliyotida ommalashgan. Qashqar shahrida paydo bo‘lganligi uchun qashqar rubobi deb ataladi.

Rubobning tovushi jozibali va jarangdordir. Ijrochilikni o'zlashtirish birmuncha yengilligi mohir rubobchi-sozandalarning yetishib chiqishi bu sozning 1940-yillardan O'zbekiston va Tojikistonda havaskor va professional sozandalar orasida ommaviylashuviga sabab bo'lgan.

Qashqar rubobining uzunligi 80-100 sm.dir. Qashqar rubobining cho'michsimon kosasi tut kabi qattiq daraxtlar yog'ochidan yasaladi. Kosaning usti teribilan qoplanadi. Qashqar rubobining dastasi uzun bo'lib, oxiri qayrilgan bo'ladi. Kosasining oldida shoxga o'xshagan ikkita gajagi bor. Ular shakl berish bilan birga yuqori notalarni chalishda chap qo'l uchun tayanch vazifasini ham bajaradi.

Qashqar rubobi yarim doyra shaklidagi dumaloq o'yma kosaxonasining usti teri bilan qoplangan bo'lib, uning yo'g'on va uzun dasta o'rnatiladigan qismi yon tomonlaridan chiqib turadigan ikkita yog'och shohchalari ushbu cholg'uning xarakterli belgisi sifatida ko'zga tashlanadi. Qashqar rubobi torlarining soni beshta: uchta ipakdan (yoki paydan), ikkitasi simdan (hozirgi paytda hammasi har xil yo'g'onlikdagi simdan) dir. Ular kvarta-kvintaga sozlanadi. Rubob dastasiga uch oktava hajmidagi to'la xromatik tovushqator hosil qiladigan 19-23 ingichka pay parda bog'langan (hozir esa deyarli hammasining dastasi ust qismiga metall qalamchalar yopishtirilgan) bo'ladi. Oddiy mediator (noxunak) bilan afg'on rubobidek chalinadi [4].

Qashqar rubobi dastasidagi boylanma pardalar, dastaga o'rnatilgan mustahkam parda bilan, diatonik tovushqator xromatik tovushqator bilan almashtirilgan. Shuningdek, qashqar rubobi asosida prima-rubobi, metsosoprano-rubobi, kichik-rubob hamda alt-rubobi yaratilgan. Ushbu cholg'ular hozirgi kunda yakkanavoz va jo'rnavoz sifatida amaliyotda keng joriy etilgan. Shu bilan birga dutor bas va dutor kontrabaslar qo'shilgan holda rubob orkestri, dutorlar oilasi qo'shilgan holda dutor-rubob orkestri tuzish mumkin. Bunday jamoalar hozirgi kunda o'quv amaliyotida keng qo'llanilmoqda.

Qashqar rubobi cholg'usining ustozlari va mohir sozandalari Muhammadjon Mirzayev, Sulaymon Taxalov, Bo'riboy Mirzaahmedov, Feoktist Vasilev, Pinxas Bakoyev, Ergash Shukrullayev, Ari Boboxonov, Rifatilla Qosimov, Adham Xudoyqulov, Qobil Usmonov, Xayrulla Lutfullayev, Tohir Rajabiy, Bahodir Ziyamammedov, Husan Nabiyev, Ilhom Irtoyev, Shavkat Mirzayev, Rustam Karimov, Murodulla Norqulov, Abdulhamid Mirhamidov, Bahodir Mirfayozov, Zamira Rahmatullayeva, Tohir Turg'unov, Shamsiddin Nuriddinov, Ravshan Abduazimov, Turg'un Avazov, Odil Nazarov, Mansur Voisov, Surxondaryoda Zarif Alimov, Shokir Mahmudov, Ashur Narzullayev, A'zam Qodirov, Mamlakat Mahkamova, Qurbon Choriyev, Normurod Bakarov, Shermamat Hamidov va boshqalarni kiritish mumkin.

Qashqar rubobi cholg'usida tovushlar kichik oktava Iya yoki si otasidan uchinchi oktava mi notasigacha bo'lgan oraliqda yaxshi jaranglaydi.



Orkestrda qashqar rubobi mugli, jozibali, xalq kuylariga yaqin ohanglarni ijro etishi mumkin. Sharq mamlakatlari ohanglari juda chiroyli jaranglaydi. Kavkaz xalqlari kuylari shu guruhga berilsa, o'ziga xos tovush jarangi bilan ajralib turadi. Har xil melizmlar (forshlag, mordent, trel, nolalar) ijrosi yoqimli va aynan kerak xarakterni beradi.

Masalan: qo'shni davlat xalqlari - Ozarbayjon, Gruziya, Tojik millat asarini yorqin ochib beradi. Qashqar rubobi asosiy kuylardan tashqari jo'rnavoz qismlarni ham yaxshi bajaradigan guruh hisoblanadi. Jo'rnavozlikda arpedjo, intervallar maqsadga muvofiq zich jaranglaydi.

Asarlarni cholgʻularga moslashtirish jarayonida qashqar rubobi cholgʻusi prima rubobi, afgʻon rubobi, dutor, tanbur hamda bas guruhidagi cholgʻular bilan birga ijro qilinganda yaxshi eshitiladi.

Qashqar rubobi 1 va 2- qoʻsh torlar - birinchi oktava “Lya” notasiga; 3 va 4qoʻsh torlar - birinchi oktava “Mi” notasiga; 5-tor - kichik oktava “Si” yoki “Lya” notasiga sozlanadi.



Bu fikrlarda koʻrinib turibdiki, biz bugungi kun yoshlariga jahon musiqa madaniyatini oʻrgatish bilan bir qatorda asosiy eʼtiborni milliy musiqa merosimiz, anʼanalarimizni oʻzlashtirishga qaratmogʻimiz lozim.

Yurtimizda madaniyat va sanʼat sohasining keng rivojlanishi uchun katta eʼtibor berilmoqda. Xalqimizning boy madaniy merosini tiklash va oʻrganish maqsadida bir qator yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.

Yer yuzidagi mavjud boʻlgan kasblar orasida musiqa sanʼati sohasi mutaxassisidan alohida musiqiy qobiliyatni, zukko tafakkurni hamda keng qamrovga ega dunyoqarashli boʻlishni talab etadi. Vatan tuygʻusini yuksak anglaydigan chinakam fidoyi insonni, sogʻlom avlodni tarbiyalashda ustozlardan olgan oʻgʻitlari va oʻrgangan bilimlarini hayotga qoʻllay oladigan mutaxassislarni tayyorlash har doim muhim va diqqat markazida turgan vazifalardan biridir.

**IQTIBOSLAR. ЧОСКИ. REFERENCES**

1. Sh. Mirziyoyev “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaror.
2. O. Hakimov “Xalq cholg‘ularida ijrochilik” (mizrobli cholg‘ular). Termiz., 2019-yil.
3. O.Nazarov Qashqar rubobida o‘qitish uslubiyoti. Toshket., 2008-yil.
4. A.Lutfullayev. O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik san’ati tarixi. Toshkent.,2010-yil.
5. A.Tashmatova. Ijrochilik san’ati tarixi. Toshkent.,2017-yil.
6. Sh.Rahimov, A.Lutfullayev Cholg‘ushunoslik. Toshkent., “Musiqqa” 2010-yil.
7. B.Rahimov. Musiqqa tarixi. Urganch. 2018-yil.